

Tez harakat qilish Respublika ko'p tarmoqli markazining asosiy vazifalari:

respublika hududida yuzaga kelgan avariya, halokatlar, tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish ishlarida kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni o'tkazish;

shaxsiy tarkib va maxsus avariya-qutqaruv texnika, asbob-anjomlarning doimiy jangovar shay holatda tayyorligini ta'minlash;

favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda va xavfi mavjud bo'lganda vazirlik, idoralar maxsus xizmatlari, ichki ishlar, yong'in xavfsizligi, tez tibbiy yordam xizmatlari bilan hamkorlikda harakat qilish;

respublika hududidagi o'ta muhim va toifalangan, kimyoviy, yong'in va portlash xavfi mavjud ob'ektlarda hamda jamoat maskanlarida, aholi punktlarida, ko'p qavatli bino va inshootlarda, tog'li hududlarda, er va qor ko'chki xavfi bo'lgan joylarda sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish, jabrlangan aholiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, xavfsiz joylarga ko'chirish hamda avariya-qutqaruv, qidiruv-qutqaruv ishlarini olib borishni tashkillashtirish;

respublika hududida terrorchilik-qo'poruvchilik xurujlari oqibatida yuzaga kelgan avariya, halokatlar va boshqa tUSDagi favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarni qidirish, qutqarish hamda birinchi yordam ko'rsatishni amalga oshirish, aholini favqulodda vaziyatlar o'chog'idan xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish;

respublika tog'li hududlarida qidiruv-qutqaruv tadbirlarini o'tkazish, suv havzalarida ro'y bergan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish tartiblarini belgilash, qor ko'chkisi, sel, er o'pirilishi natijalarida jabr ko'rganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, moddiy va madaniy boyliklarni asrab qolish, tiklash ishlarini amalga oshirishda ishtirok etish;

markaz kuch va vositalari, maxsus jihozlar zahirasini tashkil etish, yangilab borish, to'ldirish va doimiy tayyor holatda bo'lishini ta'minlash;

markaz qutqaruvchilarining jangovar tayyorgarlik holatini oshirish maqsadida, ularning kasbiy malakasini oshirishga qaratilgan tadbirlarni samarali amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etishning zamonaviy usul va ko'nikmalarini avariya-qutqaruv, qidiruv-qutqaruv ishlarida qo'llash va ulardan samarali foydalanish, markaz faoliyatini takomillashtirish, shaxsiy tarkibning jangovar va jismoniy tayyorgarligini oshirish yuzasida sharoitlar yaratib berish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish, ularni amalga oshirish;

favqulodda vaziyatlarda yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida, aniq, sifatli va tezkor amalga oshirish maqsadida, vazirliklar, idoralar va boshqa maxsus tuzilmalar bilan hamkorlikda qo‘mondonlik-shtab o‘quv mashqlari, joylardagi fuqaro muhofazasi tuzilmalari hamda Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining hududiy tizimlari bilan hamkorlikda harakat qilish bo‘yicha maxsus-taktik o‘quv mashqlarida ishtirok etish;

avariya-qutqaruv, qidiruv-qutqaruv, g‘avvoslik hamda radioaktiv, kimyoviy va biologik (bakteriologik) zaharlanish bilan bog‘liq vaziyatlarni bartaraf etishda shaxsiy tarkibning xavfsizligini ta‘minlash choralarini ko‘rish;

mavjud maxsus avtotexnika, avariya-qutqaruv, qidiruv-qutqaruv asbob-anjomlari va jihozlaridan maqsadli foydalanish, to‘g‘ri saqlash va hisobini yuritishni tashkil etish.

Markazning asosiy funksiyalari:

tabiiy va texnogen tuzilishdagi favqulodda vaziyatlar, terrorchilik-qo‘poruvchilik harakatlari oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan qidiruv-qutqaruv ishlarida ishtirok etish;

o‘rnatilgan tartibda markazni maxsus qutqaruv moslamalar va asbob-anjomlar hamda texnika vositalari bilan ta‘minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

qutqaruvchilarni kasbiy va qayta tayyorlashni ta‘minlash maqsadida, vazirlik Fuqaro muhofazasi institutiga yuborish, ekstremal sharoitlarda omon qolish, ruhiy va jismoniy tayyorgarligini tashkillashtirish;

favqulodda vaziyatlar o‘choqlarida madaniy va moddiy boyliklarni, insonlarni qidirish va qutqarish ishlarini tashkil etish;

o‘quv, moddiy-texnika, kinologiya va rehabilitatsion bazasini rivojlantirish;

vazirlik, idora, korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan o‘tkaziladigan favqulodda vaziyatlarni oldini olish, fuqarolarga tezkor yordam ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha o‘quv mashqlarida qatnashish;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish ishlariga malakali mutaxassislarni jalb etish;

o‘rnatilgan tartibda favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lgan hududlarga nazorat ostida etkazilishi zarur bo‘lgan insonparvarlik yordamlarini kuzatib borish.

